

IJTIMOY PSIXOLOGIYADA OMMAVIY MADANIYATNI YOSHLAR MILLIY QADRIYATLARIGA TA'SIRINI O'RGANISH MASALASI

G'aybullayev A'zam Ahadovich

Buxoro davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi.

Annotasiya: Ushbu maqolada ommaviy madaniyatni yoshlar milliy qadriyatlariga ta'siri masalasi ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Individializm g'oyalari, madaniy qadriyatlar, "ommaviy madaniyat", deviant xulq, tafakkurining analiz va sintez jarayoni, egoistik qarash, shaxslararo munosabatlar, oilaviy hayot tushunchasi, ijtimoiy psixologik muammolar, mafkuraviy immunitet.

Hozirgi kunda millat ma'naviyatiga xavf solayotgan tahdidlardan biri "omma viy madaniyat"dir. "Ommaviy madaniyat" XX asr o'rtalarida shakllangan bo'lib, bizga chetdan kirib kelayotgan, milliy va diniy qarashlarimizga yot ma'naviy va axloqiy illatlarni o'z ichiga olgan xurujlar yig'indisidir. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab barcha yangiligu qarashlarni beminnat tashib yuruvchi internet tarmog'idan foydalanishning ustasiga aylangan yoshlar undan qanday ma'lumotlarni olish kerag'u, qaysisidan chetlanish zarurligini hamma vaqt ham bilaverishmaydi. Milliyligimizga, madaniyatimizga to'g'ri kelmaydigan turli gaplarning tilimizga qo'shilib ketayotgani, jamoat tartibiga to'g'ri kelmaydigan kiyimlar va soch turmaklarining ko'payib borayotgani tashvishlanarli holdir. Ayrim g'arb mamlakatlarida joriy qilinayotgan bir jinslilar nikohi, tanaga turli rasmlarni chizish va metall jismlarni taqish kabilar esa, ham salomatlikka, ham insoniylikka ziddir[1,2].

Jahonda rivojlanish jarayonlari kundalik hayotimizga tez sur'atlar bilan kirib kelishi, hozirgi sharoitda mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning o'tkir quroliga aylanib bormoqda. Bu esa G'arbdagi har-xil siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qilib "ommaviy madaniyat" va "erkinlik va demokratiya" degan niqoblar ostida axloqiy behayolik, individializm g'oyalarni tarqatishni maqsad qilib qo'yib boshqa xalqlarning shu jumladan, O'zbek xalqining ham ko'p ming yillik ma'naviy, madaniy qadriyatlariga bepisandlik qilib, ulardan voz kechishga undamoqda[7].

Bunday yovuz maqsadlar "erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostida amalga oshirilmoqda. Bu kabi harakatlar xalqimizning muqaddas ma'naviy fazilatlari bo'lgan ibo va hayo, oila muqaddasligi kabi qadriyatlarimizga salbiy ta'sir qilishi shubhasizdir. Haqiqatdan ham "ommaviy madaniyat" deb atalmish g'oyalarni turli yo'llar bilan mamlakatimizga, ya'ni kinolar, turli xil jinsiy behayolikni aks ettiruvchi

kassetalar, radio, televideniye, kitoblar va hatto qo‘l telefonlariga yozib berish orqali yoshlarimiz ongiga ta’sir qilmoqda[8,9].

Mamlakatimizda yoshlar aholining eng ko‘p qismini tashkil etib turibdi. Ularni “ommaviy madaniyat” globallashuvi davrida g‘arbning ana shunday odatlariga tomon tobora toyib ketmaydi, deb hech kim kafolot bera olmaydi. Negaki, ayrim juz’iy odat va urfga aylangan holatlarning tez ildiz otayotganini kuzatib turibmiz. Olaylik oddiygina qadriyatimiz-yoshlarning ma’lum bir toifasi go‘zal odatimiz bo‘lgan o‘zbekona so‘rashish, salomlashish odatining “yangi qirralari” ni allaqachon o‘zlashtirib olishdi-ku[3,4]. Yoshlar boshni boshga tekkizib, hol-ahvol so‘rashish holatini o‘zlarining salomlashish odatiga aylantirib olishdi. Bu esa yoshlarimiz ongi va milliy qadriyatlarimizga quyidagi ijtimoiy psixologik salbiy oqibatlarga

- Yoshlar irodaviy sifatlarini zaiflashtirish;
- Deviant xulqni paydo bo‘lishi;
- E’tiqodni zaiflashuvi;
- Tafakkurining analiz va sintez jarayoni buzilishi ya’ni o‘zi uchun kerakli ma’lumotlarni ajrata olmaslik;
- Inson omilining yo‘qolishi ya’ni shaxslarning bir birini tushunishi, qo‘llab quvvatlash tuyg‘ularini yo‘qolishi, egoistik qarashning kuchayishi;
- Shahvoni hislarning kuchayishi;
- Shaxslararo munosabatlarda esa milliy tilining ahamiyati pasayishi;
- Oilaviy hayot tushunchasining yo‘qolishi, oilaviy hayotni izdan chiqishi, ajrimlarning ortishi oqibatida kelib chiquvchi ijtimoiy psixologik muammolar;
- milliy davlatchilikning inqiroziga olib keladi.

Ommaviy madaniyatning salbiy ta’sirlaridan saqlanishning yagona chorasi bu yoshlarda mafkuraviy psixologik ummunitetni shakllantirishdir[6].

Mafkuraviy immunitet shakllanishida yoshlarning hissiyotida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, ulardagi milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, milliy iftixon ko‘nikmalarini shakllantirishning muxim sub’yektiv omillaridir. Bundan tashkari, yoshlarda mafkuraviy immunitetning barqaror shakllanishida milliy mansubligiga hurmat, unda millatning yutuqlaridan g‘ururlanish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z ustida ishlashga rag‘bat uyg‘otish, mustaqil ta’lim olishga intilishni shakllantirish va yo‘naltirish kabi qator sub’yektiv-psixologik omillar ham mavjudki, ularni uyg‘unlashtirish va ko‘zlangan maqsadga yo‘naltirish tarbiyaviy ish samaradorligini belgilaydi, psixologik ta’sirni kuchaytiradi [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. Toshkent: “O‘zbekistan” NMIU, 2016.B.56.

2. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 15 iyun kuni “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizni sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqidan. www.aza.uz.
3. Alimova D. “Insoniyat tarixi-g‘oyalar va mafkuralar tarixidir” T.: Ijod dunyosi nashriyot uyi, 2002.-B.30.
4. Akramova Sh. “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” “Muharrir” nashriyoti T.: 2012.-B.126.
5. Abbosxo‘jayev O., N.Umarova, R Qo‘chqorov. Mafkura poligonlaridagi olishuv.T.: Akademiya, 2007.-B. 48-49.
6. Abdujabborova M.L. Yoshlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari: – Pedagogika fanlari nomzodi. ... dis. avtoref. Toshkent: O‘PFITI, 2007. – B.22.
7. Anvarova D.M.“Yoshlar ma’naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari” nomzodlik dissertasiyasi. T.: 2012.-B.129
8. Baratov Sh.R., Jabborov X.X. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari/Monografiya, Buxoro, 2017, “Durdona” nashriyoti. 190b.
9. Karimova V, Qur’onov M Milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. T.: Ijod dunyosi, 2002.-B.150.